

KO'RUV NERVI ATROFIYASINING DIAGNOSTIKASIDA KO'RUV STIMULYATSIYASI BILAN CHAQIRILGAN BOSH MIYA ELEKTR POTENSIALINING AHAMIYATI

Zuhra Berdieva

Toshkent tibbiyot akademiyasi oftalmologiya kafedrası

Annotatsiya: Ushbu ishda ko'ruv nervi atrofiyasida ko'ruv stimulyatsiyasi bilan chaqirilgan bosh miya elektr potentsiali (KSBCChEP) tekshiruvining diagnostik ahamiyati o'rganildi. Tadqiqot natijalari ushbu usulning ko'ruv yo'li faoliyatini baholashda va kasallikni erta bosqichda aniqlashda yuqori sezuvchanlikka ega ekanligini ko'rsatdi.

Kalit so'zlar: ko'ruv nervi atrofiyasi, ko'ruv stimulyatsiyasi bilan chaqirilgan bosh miya elektr potentsiali, VEP, P100 to'lqini, elektrodiagnostika.

KIRISH

Ko'ruv nervi atrofiyasi (KNA) — ko'ruv nervi tolalarining degenerativ jarayoni bo'lib, u turli etiologik omillar (ishemik, glaukomatoz, travmatik va toksik) natijasida rivojlanadi. Kasallikning dastlabki bosqichlarida ko'rish o'tkirligi pasayishi, ko'rish maydonining torayishi va rangni ajratish buzilishlari kuzatiladi. Ammo strukturaviy o'zgarishlar (OCT da) ko'pincha kech aniqlanadi. Shu sababli ko'ruv yo'li faoliyatini funksional darajada baholovchi obyektiv usullar — xususan ko'ruv stimulyatsiyasi bilan chaqirilgan bosh miya elektr potentsiali (KSBCChEP) — erta diagnostika uchun katta ahamiyatga ega.

Tadqiqot maqsadi

Ko'ruv nervi atrofiyasi bilan og'rikan bemorlarda KSBCChEP (VEP) ko'rsatkichlarining diagnostik ahamiyatini aniqlash va ularni sog'lom shaxslar bilan solishtirish.

Materiallar va usullar

Tadqiqot Toshkent tibbiyot akademiyasi oftalmologiya kafedrasida olib borildi. Umumiy 36 nafar bemor (72 ko'z) tekshirildi: 18 nafar — ko'ruv nervi atrofiyasi tashxisi bilan; 18 nafar — sog'lom nazorat guruhi. Barcha bemorlarda: Visometriya, perimetriya, tonometriya, OCT va Ko'ruv stimulyatsiyasi bilan chaqirilgan bosh miya elektr potentsiali (KSBCChEP) tekshiruvlari bajarildi. Tekshiruv "pattern reversal" stimulyatsiyasi asosida o'tkazilib, P100 to'lqinining kechikish (latensiya) va amplituda qiymatlari baholandi.

Natijalar

Sogʻlom koʻzlarda P100 latensiyasi oʻrtacha 101 ± 5 ms, amplituda esa 8.2 ± 1.1 μ V boʻldi. Koʻruv nervi atrofiyasi boʻlganlarda esa P100 latensiyasi 128 ± 9 ms gacha choʻzildi, amplituda esa 4.0 ± 0.9 μ V gacha kamaydi. Ishemik shaklda amplituda kamayishi glaukوماتoz shaklga qaraganda sezilarliroq kuzatildi. OCT natijalari bilan solishtirganda, RNFL qalinligi pasayishi bilan P100 amplitudasi orasida sezilarli toʻgʻridan-toʻgʻri korrelyatsiya ($r = 0.71$) aniqlandi.

Xulosa:

1. Koʻruv stimulyatsiyasi bilan chaqirilgan bosh miya elektr potentsiali (KSBCHEP) — koʻruv nervi atrofiyasini funksional baholashda obyektiv va ishonchli usuldir.
2. P100 toʻlqinining kechikishi va amplituda kamayishi KNA darajasi bilan toʻgʻridan-toʻgʻri bogʻliq.
3. KSBCHEP va OCT natijalarini birgalikda tahlil qilish koʻruv yoʻlidagi strukturaviy va funksional oʻzgarishlarni kompleks baholash imkonini beradi.